


2017-2018 yillar yakunlariga ko'ra Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining asosiy faoliyati bo'yich ko'rsatkichlari to'g'risida taxliliy ma'lumot.

T/r	Asosiy faoliyat turi bo'yicha ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2017 yil yakunida amalda	2018 yil yakunida amalda	2017 yilga nisbatan (%)
	Bajarilgan ish xajmi, jami	mlrd.so'm	2036,2	3173,2	155,8
	shu jumladan:				
1	Investitsiya dasturi bo'yicha	mlrd.so'm	617,7	857,9	138,9
		km	364,4	281,5	106,5
2	To'la ta'mirlash ishlari	mlrd.so'm	222,2	391,9	176,4
		km	140,0	145,3	103,8
3	Mintaqaviy yo'llarni ta'mirlash	mlrd.so'm	367,8	380,5	103,5
		km	3240,4	3245,6	100,2
4	Umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash va saqlash ishlari	mlrd.so'm	828,5	1542,9	186,2
		km	2858,0	3252,0	113,8
5	Sanoat ishlab chiqarish xajmi	mlrd.so'm	365,5	380,5	104,1
6	Yangi ishjoylarini yaratish	kishi	331	1366	412,7
7	Qora metall chiqindilarini topshirish	tonna	15970,0	15981,0	100,1

Qo'mita tizimidagi korxonalar va tashkilotlarda 2018 yil davomida Investitsiya dasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida **857,9 mlrd. so'mlik** qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Ushbu ko'rsatkich 2017 yilning 2018 yilga nisbatan **138,0 foizni** tashkil etadi.

Bundan tashqari to'la ta'mirlash dasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida **391,9 mlrd.so'mlik** ta'mir ishlari bajarildi. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilga nisbatan **176,0 foizni** tashkil qiladi.


2017-2018 yillarning yakunlariga ko'ra asosiy faoliyat ko'rsatkichlarining taqoslama diagrammasi



2018 yil yakuni bo'yicha Respublikamizdagi **3245,6 km** mintaqaviy avtomobil yo'llarini ta'mirlandi. Shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida **194,1 km**, Andijonda **323,5 km**, Buxoroda **222,3 km**, Jizzaxda **186,1 km**, Qashqadaryoda **327,0 km**, Navoiyda **193,2 km**, Namanganda **270,2 km**, Samarqandda **311,1 km**, Surxandaryoda **371,1 km**, Sirdaryoda **185,7 km** Toshkent viloyatida **185,4 km**,

Farg'onada **267,6 km**, Xorazmda **128,2 km** hamda Toshkent shahrida **70,2 km** mintaqaviy avtomobil yo'llarida ta'mirlash ishlari olib borildi. Mintaqaviy ichki yo'llar ta'miri hajmi o'tgan yilgi darajada qolib, kamaeshga yo'l qo'yilmadi.

2018 yil yakuniga ko'ra mintaqaviy avtomobil yo'llarini ta'mirlash (hududlar kesimidagi diagramma)



2018 yil davomida Respublika bo'yicha avtomobil yo'llarida **42695 km** uzunlikdagi yo'llardan **1542,9 kmdan iborat qismida** joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, ularning holati yaxshilandi. Bu esa 2017 yiliga qaraganda **186,2 foizni** tashkil etadi.

Qo'mita tizimidagi korxonlar tomonidan 2018 yilda **380,5 mlrd. so'mlik**

sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur ko'rsatkich 2017 yilga nisbatan **104,1 foizni** tashkil etganligini ko'rsatadi.

Tizim korxonlari tomonidan 2018 yilda **1366 ta** yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu ko'rsatkich esa 2017 yilining mos ravishdagi tegishli davriga qaraganda qariyb to'rt baravar ortib, **413,0 foizni** tashkil etadi.

Korxonlar tomonidan qora metall chiqindilari topshirish ko'rsatkichi 2018 yilda **15981 tonnani** tashkil etadi. Bu qariyb o'tgan yilgi darajada qolib, kamayishga yo'l qo'yilmagan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining 2018 yilda – umumiy bajarilgan ishlar xajmi – **3173,2 mlrd. so'mlikdan** iborat. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan bir yarim baravardan ziyodga oshib, **155,8 foizni** tashkil etganligini ko'rsatadi.